





1. Rasmda 1 dan 15 gacha bo'lgan sonlarni tartib bilan toping.



2. YPX inspektori juda hushyor bo'lishi kerak. Ushbu nomerlarda qaysi raqam ishlatilmaydi?



3. Haydovchi mashina oynasida tez tibbiy yordam masinasining raqamini ko'rdi. Ushbu mashinaning raqami aslida qanday?



4. O'qituvchi ikkita turli xil raqamdan iborat sonni o'yladi. Keyingi raqam avvalgisidan katta. Agar ushbu son o'qilsa, unda ikkala so'z bir xil harf bilan boshlanadi. Bu qanday son?



5. Dasturchilar mantiqiy fikrlashlari kerak. Keyingi son qaysi son bo'lishi kerakligini toping.

1, 2, 4, 7, 11, 16, 22, 29, ...



6. Blits so'rovi.

- a) 3 o'nlik 3 birlikdan qanchaga katta?
- b) 5 birlik 7 o'nlikdan nechta birlik kichik?
- d) 3 yuzlik 10 o'nlikdan qanchaga katta?



7. Otasi ishdan onasidan keyin, qizi onasidan oldin, o'g'li esa singlisidan oldin keladi. Ular uyga qanday tartibda kelishadi?




8. Maktab oshxonasi menyusida kotletlar, sosiska va qovurilgan tuxum bor. Garnir uchun sabzavot, makaron va kartoshka pyuresini tanlash mumkin. Maktab o'quvchisi ushbu to'plamdan qancha turli xil taomlar tuzishi mumkin?



9. So'zana uslubidagi bitta choyshab ikki yil ishlashni talab etadi. Bu necha kun?



10. Kiyim yaratishda avval matodan alohida qismlar kesiladi, so'ngra ular bir-biriga tikiladi. Ushbu etak qanday qismlardan tikilgan?



11. Futbol jamoasi uchta o'yin o'tkazdi. Ushbu uchta o'yinda u raqiblar darvozasiga 3 ta gol urdi va o'z darvozasidan 1 ta gol o'tkazib yubordi. U bitta o'yinda g'alaba qozondi, bitta o'yinda durang o'nadi, uchinchi o'yinda esa yutqazdi. Har bir o'yin qanday hisob bilan yakunlangan?



12. Sahnani yoritadigan lampalar sofitlar deb ataladi. Har bir harakat uchun ular ma'lum bir tartibda yoqiladi. Keyin qaysi sofit yonishini o'ylab toping:



13. Fermerda 15 ta qo'y bor. U to'qqiztadan tashqari barchasini sotdi. Fermerda nechta qo'y qoldi?



14. Sotuvchida bir qop shakar, pallali tarozi va massasi 2 kg, 3 kg va 5 kg bo'lgan tarozi toshlari bor. Ushbu to'plam yordamida sotuvchi qanday qilib 4 kg shakar, 6 kg shakar, 1 kg shakar tortishi kerak?



15. Kitoblar qanday ketma-ketlikda joylashtirilgan?




16. Sinf o'quvchilari bo'yi bo'yicha saf tortishdi. Safda Axrorning chap tomonida 18 nafar o'quvchi, Axrorning o'ng tomonida esa 8 nafar o'quvchi bor. Sinfdan necha nafar o'quvchi bor?



17. Me'mor bog'ning maketini yaratdi, lekin detallarni sochib yubordi. Unga ushbu detallarni rejaga moslab yeg'ib chiqishga yordam bering.



18. Sxema bo'yicha dinozavrlarning uzunligini aniqlang.



19. Lola kapalak qurtining uzunligini boshidan dumigacha o'lchadi va 6 cm 5 mm natijani oldi. Keyin Aziza kapalak qurtining uzunligini dumidan boshigacha o'lchadi va 9 cm 7 mm natijani oldi. Nima uchun qizlarda turli xil natijalar chiqdi?



20. Daftaringizga algoritm bo'yicha kesmalarni chizing (1 qadam – 1 katak) va xaritalarda maktab qanday belgilanishini bilib oling.


7→, 4↓, 2←, 2↑, 3←, 2↓, 2←, 4↑.



21. Toshga, daraxtga va kulbaga uchta raqam: 1, 7 va 9 yashirilgan. 1 raqami toshga yashirilmagan, 9 raqami esa toshga ham, kulbaga ham yashirilmagan.

a) Qaysi raqam qayerga yashirilganini toping.

b) Ularni strelkalar ko'rsatayotgan tartibda yozing, shunda qaroqchilar yashirgan tangalar sonini bilib olasiz. Qaroqchilar nechta tanga yashirganlar?






- 22.** Tarozi ning pallari muvozanatda bo'lishi uchun ikkinchi pallaga qaysi shakllarni qo'yish mumkin? Kubiklarning massalari bir xil.



- 23.** Stol ustiga uchta ko'za qator qilib terib qo'yilgan. Ulardan birida oddiy suv, ikkinchisida sut, uchinchisida sharbat bor. Agar suvli ko'za stol markazida bo'lmasa va sutli ko'za suvli ko'zaning chap tomonida bo'lsa, nima qayerda turganini aniqlang.



- 24.** Agar lampa yoqilsa, u yonadimi, aniqlang.



- 25.** To'rtta geolog 7 ta foydali qazilmalar namunalarini topdi:



1 kg



2 kg



3 kg



4 kg



5 kg



6 kg



7 kg

Ularga ushbu namunalarni to'rtta ryukzakka ryukzaklar vazni teng bo'ladigan qilib joylashtirishga yordam bering.



26. Boshqotirmaning toping. Rasmlar ortiga qanday sonlar yashiringan?

$$\text{Rocket} + \text{Rocket} - 2 = 8$$

$$\text{Ball} + \text{Ball} + \text{Ball} = 12$$

$$\text{Rocket} = ?$$

$$\text{Monitor} + \text{Monitor} = 24$$

$$\text{Mouse} + 5 = 7$$

$$\text{Keyboard} + \text{Mouse} = 11$$

$$\text{Monitor} + \text{Keyboard} = ?$$



27. Ushbu yozuvdagi qonuniyatni aniqlang va qatorni davom ettiring.



28. Shaklchalarni ifodalar to'g'ri bo'ladigan qilib raqamlar bilan almashtiring. Turli shaklchalar turli raqamlarni anglatadi.

$(52 + 14) - 12 = \star 4$	$\star \star - (12 + 14) = 19$
$(36 + 15) - 1\star = 33$	$64 - (\text{purple square} + 15) = 39$
$(59 + 8) - \blacktriangledown 5 = 22$	$53 - (16 + \blacktriangle \star) = 12$

Mantiqiy masalalar



29. Qum soati qisqa vaqt oraliq'ini hisoblashda yordam beradi. Buning uchun ular ag'darib qo'yiladi, yuqori qismdan qum pastki qismga to'kilishi kutiladi.

Ikkita: 3 va 7 minutga mo'ljallangan qum soatlari bor.

Ular yordami bilan roppa-rosa 4 minutni qanday hisoblash mumkin?



30. Tezyurar poyezd Toshkentdan Samarqandga 2 soat 8 minut, Samarqanddan Toshkentga esa 128 minut yuradi. Nima uchun?



31. Oynada aks etgan soat nechani ko'rsatayapti?



32. Juftsiz shaklni toping.

